

"O'zkimyosanoat" AJ jamoasi "Gimnastrada hamma uchun!" sport festivalida faxrli 2-o`rinni egalladi

// 12.05.2023

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/gimnastrada-hamma-uchun-sport-festivali>



Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, xotin-qizlarning sportga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, O'zbekiston gimnastika Federatsiyasi tomonidan Vazirlik va idoralar xodimalari va ularning oila a'zolari o'rtasida "Gimnastrada hamma uchun!" sport festivali o'tkazildi.

Unda "O'zkimyosanoat" AJ nomidan ishtirok etgan Jamiyatimiz tizim korxonasi "Maxam-Chirchiq" AJ jamoasi faxrli 2-o'rinni egalladi va "Gimnastika elementlarining eng yaxshi tanlovi uchun" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Ushbu yutuq bilan jamoa a'zolarini tabriklaymiz hamda kelgusida omad va muvaffaqiyatlar tilaymiz!

